

Oliy o‘quv yurtlariga tayyorlanuvchilar uchun



abituriyent tayyorlov markazi

S A V O L L A R K I T O B I

ABITURIYENT: _____

imzo

Abituriyent diqqatiga !

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab unda har bir fan bo‘yicha 30 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa, darhol auditoriya rahbariga ma’lum qiling.

Variant

**Fanlar : Blok. Ona tili va adabiyot
Blok. Biologiya
Blok. Kimyo**

OMAD YOR BO‘LSIN !!!

Qarshi 2019

Telegram manzilimiz @qarshi_Alfa .

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Adabiyotshunoslik so'zining ko'makchi morfemasidagi barcha undoshlar qaysi xususiyatiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'la oladi?

- A) *jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra*
- B) *shovqinli yoki sonorlarga mansubligiga ko'ra*
- C) *hosil bo'lish o'rniga ko'ra*
- D) *hosil bo'lish usuliga ko'ra*

2. Qaysi gapda ega vazifasidagi so'z imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) *Bu nur Kumushni ko'rmasdan, unga adolatsizlik qilgan, soddadil, „dunbul tabiatli O'zbekoyimni birdan o'ziga keltiradi.*
- B) *Ahmad Farg'oniy yerning dumaloq ekanligini ochgan, Misrda Nil daryosi suvini o'Ichaydigan asbob yasagan, fallakiyot ilmiga munosib hissa qo'shgan.*
- C) *Bu muhit Pushkinda she'riyatga xavas uyg'otgan.*
- D) *O'qimishli, xulqini tarbiya qilgan qiz bola oltindan qimmatli, injudan qadrli bir boylikdirki, bu kabi qizlarning ismlari eng yiroq qarindosh-u tanishlarga qadar yetadi.*

3. Qaysi javobda metafora usulida ma'no ko'chishi mavjud emas?

- A) *Shunday bo'lmog'iga barcha asoslar bor edi, chunki ular bir qishloqda o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.*
- B) *Xayoli uni jang maydoni sari olib ketadi.*
- C) *Alangaga ishonmay dunyo Turar elni she'r bilan chorlab.*
- D) *Asalxon e'tibor bilan tingladi-yu, javob berish o'rniga indamay yo'lida keta berdi.*

4. Qaysi javobda ot so'z turkumi bilan omonim bo'la oladigan fe'llar berilgan?

- A) *so'qmoq, yormoq* B) *o'ymoq, aymoq*
- C) *paxmoq, chaqmoq* D) *topishmoq, tuymoq*

5. Qaysi javobda sinonimlar qatori noto'g'ri tuzilgan?

- A) *buyruq, farmon, farmoyish, amir* B) *asar, asorat, nishon, iz*
- C) *avval, ilgari, oldin, burun* D) *adil, to'g'ri, tik*

6. Qaysi gapda yasaliş asosi yasama sifat bo'lgan ot ishtirok etmagan?

- A) *Ijodda va hayotda erkinlik, shaxs ozodligi va komilligi uchun kurashdir.*
- B) *Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,*

Nodonga yondashma, bosmasin g'afolat

C) *Chunki adib odamlarimiz, xalqimiz siyratidagi nurli jihatlarni sezgiriklik bilan ilg'ab olib, tasvirlay bildi.*

D) *Shoshibushon osoyishtalik, tinchlikni yaxshi ko'rardi, shuning uchun uylanishni ham xohlamasdi.*

7. Qaysi gapda vazifa shakliga ko'ra o'zaro bir turga mansub bo'lgan fe'llar ikki o'rinda qatnashgan?

- A) *Dunyoda odamlarni yaxshi ko'rishdan ham buyukroq baxt bo'ladimi?*
- B) *Yosh bir joyga borganda, birovning eshigini qoqib, qosh-qovog'iga qarashdan og'ir ish bormi?*
- C) *Harom yo'l bilan topilgan mol-u dunyo oxiri senga halokat keltiradi.*
- D) *Shahar chekkasiga chiqayotgan paytingizda suv bilan sirkani bir xil miqdorda qo'shib, hosil bo'lgan suyuqlik bilan badanigingizni ochiq joylarini arting.*

8. *Shoir yangidan tashkil etilgan «Yoshlik» jurnalining dastlabki bosh muharriri sifatida yoshlarning adabiyotga kirib kelishi uchun katta jonbozlik ko'rsatdi.*

Qaysi javobda yuqoridagi gapda ishtirok etgan fe'l nisbatlari haqida to'g'ri hukm berilgan?

- 1. aniq 2. orttirma 3. majhul. 4. o'zlik. 5. birgalik
- A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4

9. Qaysi gapda qatnashgan barcha ko'makchilar yasama so'z bilan ifodalangan gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qilgan?

- A) *Adib o'lka ahli hayotidagi unchalik ko'zga tashlanavermaydigan jihatlarning mohiyatini teran anglagani uchun ham «Kecha va kunduz» romani Turkiston va turkistonliklarning tarixiy taqdirini butun chigalliklari bilan aks ettirgan badiiy asar darajasiga ko'tarilgan.*
- B) *Turdining olijanob harakatlarini, yakdillik haqidagi yonib-kuyishlarini qirq, yuz, ming va boshqa urug'lardagi millat-doshlari anglab yetmaydilar, ba'zilari hatto nafrat bilan qaraydilar.*
- C) *Shoira ijtimoiy tuzum, siyosiy adolatsizlik haqida emas, balki odamlarning o'zaro munosabatlaridagi yolg'on, nosamimiylik singari illatlardan ozorlanadi va shu kabi tuyg'ular qayta-qayta «dog' o'la» veradi.*
- D) *Ammo o'z rizolig'ining sharti qilib to'ydan ilgari Marg'ilon borib kelishni va bir daraja ularga aytib o'tishni, shundan so'ng to'y boshlashni ahd qildi.*

10. Qaysi javobda moslashuv munosabatli so'z birikmasi ishtirok etmagan?

- A) *Bunday jur'atni va hayotiy tasavvurni eng avval ota-ona muhabbatidan olish kerak edi.*
- B) *Mustaqillik bizga milliy ma'naviyat olamini ochib berdi.*
- C) *Kimdir ko'rmay ketgan baxtni men ko'rdim, Kimdir aytmay ketgan so'zni aytdim men.*
- D) *Yoki ko'rayin deb istab turganlar, Yoki Toshkentimning shaklin so'rganlar, Naqshini dilida olib yurganlar...*

11. *G'afur G'ulom Erkin Vohidovning mudragan aruzni uyg'otib yuborganini, uni arab, fors so'zlaridan tozalab, sof o'zbek g'azalini yaratayotganini gapirdi.*

Ushbu gapda ishtirok etgan gap bo'laklari haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A) Barcha qaralmishlar kesimga bilvosita bog'langan.
- B) Shaxs otlari ega va aniqlovchi vazifasini bajargan.
- C) Mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan.
- D) Uyushiq bo'laklar bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajargan.

12. Qaysi javobda grammatik asosning uyushishi kuzatilgan?

- A) *O.Hojiyeva xalqni og'ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug'o'zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi.*
- B) *Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.*
- C) *Hozirgi vaqtda nuklein kislotalar faqat yadroda emas, balki xloroplast va mitoxondriyda ham mavjudligi aniqlangan.*
- D) *Oddiy odamlarga oddiy gapir, donolar bilan donolikka xos gaplash, har odamning fahm-u farosatiga moslab gapir, odamning fahm-u farosatini esa uning gapidan bilib olasan.*

13. *Qorong'i va tiniq osmon o'zining butun go'zalligi va malohatini cheksiz balandliklardan ulug'vorlik bilan bizga namoyish qilib turar edi.*

Ushbu gapda nechta tobe bog'lanish mavjud.

- A) 10 B) 12 C) 13 D) 14

14. Qaysi gap tarkibida o'z paronimi bilan turli turkumga mansub bo'la oladigan so'z qatnashgan?

- A) *Asarda tasvir etilayotgan voqea yo harakat sur'ati tezlashgan holatlarda esa, yetti bo'g'inli she'rlardan foydalaniladi.*
B) *Shox butoqlari eng ko'p bo'lgan bug'uni kim otarga garov bog'lashardi.*
C) *Burj – qadimgi astronomiyada quyoshning yillik doirasidagi o'n ikki nuqtaning har biri.*
D) *Adl qulog'ila eshit holimi*
Zulm qilur, baski, menga zolimi...

15. *Birov ilmdon-u bo'lsa tadbirkor,*

Nogoh toyib ketsa oyog'i yakbor,

Kichik bir xatoga gapirma qo'pol,

Ulug'lar demishlar: «Yaxshilikni ol!»

Ushbu to'rtlikda jarangli til undoshlaridan iborat bo'g'inlar orasida kelgan keng o'nlar soni nechta?

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

16. Quyida berilgan javoblardagi ergash gapli qo'shma gaplardan qay birining ergash gap qismi tahlili ■ shartli belgilariga xos?

- A) *Zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo'lsa faqat dam olaylik deysan.*
B) *Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga sochdi.*
C) *Qayerda ish to'g'ri yo'lga qo'lgan bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish bo'ladi.*
D) *Shu tobda hordiq chiqarishga fursat yo'q edi, shu bois tag'in jiddiy ishga kirishib ketdilar.*

17. *Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz dedi Bibixonim kelinga aytganlarini so'zsiz bajargaysiz*

Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda ifodalangan?

- A) « , - , - » B) « : - , - »
C) « , - . - » D) « : - » , - .

18. *Zolim jallod, bilmaganim bildirgin,*

Yig'latma Mohini, o'ynab-kuldirgin,

Meni o'ldir, Mohini qo'y, jallodlar,

Yoshim ulug', avval meni o'ldirgin.

Qaysi javobda ushbu to'rtlikdagi egalarga oid noto'g'ri hukm keltirilgan?

- A) Barcha gaplar fe'l kesimli shaxsi noma'lum gap sanaladi.
B) Bir o'rinda ot kesimli egali gap ishtirok etgan.
C) Olti o'rinda fe'l kesimli egasi yashiringan gap ishtirok etgan.
D) Ot kesimli shaxsi noma'lum gap uchramaydi.

19. *«Doston» so'zi adabiy atama sifatida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli asarlarni anglatadi. Xalq dostonlarini do'mbira yordamida ijro etuvchi, kuylovchi san'atkor o'zbeklarda «shoir» yoki «baxshi» deb atalgan. Xorazmda dostonlar tor jo'rligida aytiladi va bu xil aytuvchilar «xalfa» deb yuritiladi.*

Ushbu gaplarda fonetik hodisa asosida yozilgan yasama so'zlar soni nechta?

- A) 4 B) 5 C) 6 D) 7

20. Qaysi javobda fe'l yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qila oladigan ismlarning munosabat shakli ishtirok etgan?

- A) *Shoir o'z ijodiy faoliyati bilan XV asr o'zbek adabiyotini mislsiz taraqqiyot cho'qqilariga ko'tardi.*
B) *Bilim mehnat bilan, tilak g'ayrat bilan go'zal.*
C) *Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi.*

D) - *Ko'rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O'zim itday charchaganman.*

21. *“Adibning aksariyat asarlaridagi voqea-hodisalar, insonlar taqdiri o'zining o'tkir drammatizmi bilan birga samimiy yumori bilan ham o'quvchi yodida uzoq saqlanib qoladi”.*

Ushbu fikrlar qaysi adib asarlari haqida?

- A) Nodar Dumbadze. B) A. De Sent-Ekzyuperi.
C) Said Ahmad D) T.Malik

22. Qaysi xalq dostoni qofiyali nasr (sa'j) ning go'zal namunasi bo'lib, deyarli har bir nasriy parcha qofiyali sanaladi?

- A) “Alpomish” B) “Kuntug'mish”
C) “Ravshan” D) “Rustamxon”

23. *“Onalar shunaqa – baxti chopmagan bolasi bilan birga bo'ladi”.*

Ushbu parcha qaysi asarda uchraydi?

- A) “Dunyoning ishlari” B) “Ufq”
C) “Qorako'z majnun” D) “Oq kema”

24. A.Navoiyning qaysi devonlari Husayn Boyqaroning topshirig'i bilan tuzilgan?

- A) “Ilk devon”, “Navodir un-nihoya”
B) “Badoye ul-bidoya”, “Xazoyin ul-maoniy”
C) “Devoni foniy”, “Badoye ul-bidoya”
D) “Badoye ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”

25. Furqatning qaysi asari uni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi?

- A) “Hammomi hayol” B) “Nag'ma bazmi hususida”
C) “Sarguzashtnoma” D) “Gap ta'rifi”

26. Aytadilarki, shoirlar yarim avliyodirlar. Bu qarashning naqadar to'g'riligi qaysi adibning she'rida to'la isbotlanadi?

- A) Zavqiy “Ajab ermas” B) Fitrat “Yurt qayg'usi”
C) Musa Jalil “Ishonma” D) G'.G'ulom “Sog'inish”

27. Janni Rodarining “Hurushni eplolmagan kuchukcha” ertagida kuchukchaga qaysi qahramon “ko'z ochib yumguncha hurishni o'rgatib qo'yaman” deydi?

- A) kuchuk B) xo'roz C) kakku D) sigir

28. Quyidagi misralarida Abdulla Oripov qanday she'riy san'at qo'llagan?

*Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q...*

- A) tashbeh B) ishtiyoq C) tazod D) talmeh

29. Kimning ijodida yorning rahmsiz ikki ko'zi mast kofirlarga o'xshatiladi?

- A) A.Navoiy B) S.Saroyi C) Atoyi D) Nodira

30. Adabiyotimizda ilk bor falsafiy-publisistik yo'nalishda ijod qilgan shoira kim?

- A) Nodira B) Zulfiya C) A.Otin D) S.Zunnunova

Tuzuvchi: Nurmurodov Ilhom

Taklif va e'tirozlar uchun tel: +99894 524 62 45

BIOLOGIYA

31. Shershevskiy-Terner sindromi bilan kasallangan odamda mitozning metafaza bosqichida xromosoma (a) va xromatida (b) soni nechta bo'ladi?

- A) a-44 b-88 B) a-46 b-92
C) a-45 b-90 D) a-45 b-92

32. Katta yoshli erkak shifokorga murojaat qildi. Tekshirish natijasida qon bosimi maksimal 125-130 mm, minimal 90 mm, 1

mm³ qoni tarkibida 10-15 ming dona leykosit, 1mm³ qoni tarkibida 4.5 mln eritrosit, qon plazmasi tarkibida antigemofil omil kamligi, siydigi tarkibida 150-250 mg % qand borligini aniqlandi. Ushbu bemor qaysi kasallik bilan kasallanmagan?
 A) leykositoz B) anemiya C) gemofiliya D) qandli diabet
 33. 5 ta urug'li meva hosil bo'lishida nimalar ishtirok etadi?
 A) xromosoma to'plami gaploid bo'lgan 5 ta sperma, 5 ta mikrospora, 5 ta vegetativ hujayra
 B) xromosoma to'plami diploid bo'lgan 5 ta markaziy hujayra, xromosoma to'plami gaploid bo'lgan 10 ta vegetativ hujayra
 C) xromosoma to'plami diploid bo'lgan 5 ta arxeospora, xromosoma soni gaploid bo'lgan 10 ta sperma, 5 ta mikrospora
 D) xromosoma to'plami gaploid bo'lgan 5 ta tuxum hujayra, 5 ta vegetativ hujayra, xromosoma to'plami diploid bo'lgan 1 ta arxeospora
 34. To'g'ri gulli o'simliklardan tur(lar) (a) va qiyshiq gulli o'simliklardan tur(lar) (b) berilmagan javobni aniqlang?
 1) zangori sachratqi 2) shuvoq 3) qizil lola 4) jag'-jag'
 5) o'tloq sebargasi 6) kanop 7) oshqovoq 8) moyli kungaboqar 9) tangao't 10) astragal 11) misr g'o'zasi
 A) a-3.11 b-9.10 B) a-1.6 b-3.7
 C) a-4.2 b-5.8 D) a-6.2 b-1.8
 35. Termitga xos bo'lgan xususiyatlar nechta?
 1) oilasida o'nlab erkak, bir necha yuz minggacha ishchi va quriqchilar bo'ladi 2) ona termit 10 yilgacha yashaydi 3) qoni kislorod tashishda ishtirok etadi 4) o'simliklarni generativ organi bilan oziqlanadi 5) traxeyasi orqali nafas oladi 6) to'la o'zgarish bilan rivojlanadi 7) quriqchisi boshi yirik, jag'i kuchli rivojlangan 8) postembrional davri tuxum, lichinka, voyaga yetgan davrlarni o'z ichiga oladi 9) oyoqlari 8 ta 10) yuragi ko'p kamerali 11) ayirish organi malpigi naychasidan iborat
 A) 5 B) 6 C) 7 D) 8
 36. Muskullarni joylashishiga ko'ra ortiqchasini aniqlang?
 A) tishsimon, o'mrovosti B) serbar, diafragma
 C) chakka, chaynash D) rombsimon, tashqi qovurg'alararo
 37. To'g'ri fikrni aniqlang?
 A) yirtqich qush, laylak, karqur kabi hayvonlarni jufti uzoq yillar davomida saqlanib qoladi
 B) kapcha ilon qurbaqa, kemiruvchi kaltakesak, ilon kabi sovuqqonli hayvonlar bilan oziqlanadi
 C) o'rdak, g'oz, oqqush kabi hayvonlarning tumshug'i qirrasini bo'ylab har xil shakldagi muguz plastinkalar joylashgan
 D) oq ayiq, o'rdakburun, timsah kabi hayvonlar yuragi 4 kamerali, moddalar almashinuvi jadal kechadi
 38. To'g'ri fikrni aniqlang?
 A) bug'doy, makkajo'xori, karam, olma kabi o'simlik namlik yetarli muhitda o'sadigan o't o'simlik
 B) karam, sholg'om, sabzi kabi o'simliklarni urug'i 5°C da o'nib chiqadigan, karamdoshlar oilasiga mansub sabzavot o'simlik
 C) pomidor o'simligini barglari novdada ketma-ket joylashgan, yorug'sevar, bir yillik madaniy turkum hisoblanadi
 D) gladiolus o'simligi piyozchasidan ko'payadigan, magnoliyatoifaga mansub qiyshiq gulli o'simlik
 39. Beda, kiyiko't, shirinmiya, lola kabi o'simliklari uchun umumiy xususiyatlar nechta?
 1) poyasi kambiyli 2) guli qiyshiq 3) magnoliyatoifa 4) murtak ildizchasidan hosil bo'lgan asosiy ildiz uzoq muddat yoki o'simlik hayotining oxirigacha saqlanib qoladi 5) ko'p yillik o't 6) barg yaprog'i panjasimon tomirlangan 7) magnoliyasimon 8) murtak ildizchasidan asosiy ildiz hosil bo'ladi 9) urug'chisi bitta 10) mevasi dukkak 11) barglari novdada ketma-ket joylashgan
 A) 7 B) 3 C) 6 D) 4
 40. Sog'lom odamda mitoz jarayonida telofaza bosqichida (a), meyozi jarayonini anafaza I bosqichida (b) mikronaychalar soni nechta bo'ladi?
 A) a-54 b-108 B) a-108 b-54

C) a-108 b-108 D) a-54 b-54
 41. J. H. Hamidov odatdagiga nisbatan yirik va tez o'suvchi quyovni qanday qilib oladi?
 A) zigotasiga o'sish gormoni kiritadi
 B) tuxum hujayrasiga o'sish gormoni geni kiritadi
 C) zigotasiga o'sish gormoni geni kiritadi
 D) somatik hujayrasiga o'sish gormoni kiritadi
 42. 17 yoshli bolada yuqori jag'ida almashinadigan tishlar soniga quyidagilarni qaysilari sonini yig'indisi teng?
 A) buyraklar, jigar, yurak
 B) yetim qovurg'a, o'pkalar, me'da osti bezi qismlari, jigar
 C) qoziq tishlar, chin qovurg'alar, buyraklar
 D) yo'g'on ichak qismlari, to'sh suyagi, jigar
 43. Tikandum, qilquyruq, dengiz otchasi kabi hayvonlarni birlashtiring.
 A) jinslar nisbati 1:2, yuragi 2 kamerali, jabrasi orqali nafas oladi
 B) ayirish organi bir juft tasmasimon buyrakdan iborat, yurakka keluvchi qon tomir vena deyiladi, suzgich pufagi rezanator vazifasini bajaradi
 C) umurtqalilar kenja tipiga mansub, qon faqat qon tomirlarga oqadi, jinslar nisbati 1:1
 D) bosh skeleti jabra ravoqlari, jabra qopqoqlari, miya qutisi va jag' suyaklaridan iborat, sovuqqonli
 44. Sinantropga xos bo'lgan xususiyatlar nechta?
 1) bo'yi 135-150 sm 2) olovni yoqishni, uni saqlashni bilgan 3) peshonasi juda qiya 4) bo'yi 156-165 sm 5) tishlari yirik, pastki jag'i katta 6) o'lganidan keyin yaqinlarini ko'mganlar 7) bosh miyasi hajmi 820-1250 sm³ 8) 500-300 ming yil oldin yashagan 9) Homo erectus turiga mansub 10) iyagi zaif rivojlangan 11) qadimgi odam
 A) 5 B) 4 C) 6 D) 7
 45. Hujayra mitoxondriyasi uchun to'g'ri emas fikrlarni aniqlang.
 1) silliq membranasi krista deyiladi 2) ATF sintez qiladi 3) barcha eukariot va prokariotlarda bo'ladi 4) turli xil to'qimalardagi soni bir xil bo'ladi 5) ipsimon shakllarning uzunligi 15-20 mkm gacha boradi 6) turli xil to'qimalardagi soni hujayraning funksional faolligiga bog'liq 7) ko'p energiya sarflanadigan hujayralarda kam bo'ladi
 A) 2.4.6 B) 3.4.7 C) 2.5.6 D) 1.5.7
 46. Norkani sistematik birlikka kichikdan kattaga qarab birlashtiring
 A) xordali—umurtqali—sutemizuvchi—kemiruvchi—norka
 B) norka—kemiruvchi—yo'ldoshli—sutemizuvchi—xordali
 C) xordali—sutemizuvchi—yo'ldoshli—yirtqich-- suvsarsimon—norka
 D) norka—suvsarsimon—yirtqich—sutemizuvchi—umurtqali—xordali
 47. Odamning qon plazmasi tarkibida glukoza, gormon, tuz, agglyutinini β bor, eritrositlarida rezus omil, gemoglobin agglyutinogen A bor. U qaysi guruhlariga qon beradi?
 1) II 2) III 3) IV 4) I
 A) 2.4 B) 3.4 C) 1.3 D) 1.4
 48. Vatani Markaziy Amerika hisoblangan o't o'simliklarni aniqlang?
 A) sabzi, suli, bug'doy B) ananas, kartoshka, tamaki
 C) makkajo'xori, loviya, g'o'za D) arpa, bug'doy, kofe
 49. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan chala o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlar berilmagan javobni aniqlang?
 1) Osiyo chigirtkasi 2) bronza qo'ng'izi 3) turkiston termeti 4) to'shak qandalasi 5) qir chumoli 6) yashil temirchak 7) burga 8) sariq fir'avn 9) moviy ninachi 10) suvarak 11) podalariy
 A) 6.9.1 B) 2.5.11 C) 9.3.10 D) 8.2.5
 50. Hayvon va o'simliklarning shimol tomon tarqalishi ... yetishmasligidan kelib chiqadi?
 A) namlikni B) issiqlikning C) havoning D) yorug'likning
 51. Simbioz gipotezasiga ko'ra qaysi organoidlar yadro membranalaridan kelib chiqqan?

A) xloroplast, sentrosoma B) lizosoma, ribosoma
C) Golji majmui, lizosoma, sentrosoma
D) endoplazmatik to'r, Golji majmuasi
52. Sog'lom odamning somatik hujayrasida mitozning profaza bosqichida autosoma xromosomalari (a) va jami xromatidalari (b) sonini aniqlang

A) a-44, b- 92 B) a-44, b-46
C) a-88, b-92 D) a-22, b-46

53. Hayvonlarni tiplarga moslab yozing.

1) midiya; 2) meduza; 3) karakatitsa; 4) nereida; 5) ostritsa;
6) qum chuvalchangi; 7) osminog

a) molluskalar; b) halqali chuvalchanglar; c) to'garak chuvalchanglar;
d) bo'shliqichlilar

A) a-1, 3, 7; b-4, 6; c-5; d-2 B) a-1, 2, 3; b-4, 5, 6; c-2; d-7
C) a-3, 7; b-4, 6; c-5; d-1, 2 D) a-1, 2; b-4; c-5, 6; d-3, 7

54. Odamdagi o'mrov osti muskulidan bo'yinning teri osti muskulini farqini toping.

1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuviga ko'ra to'sho'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi;

3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi;

4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi

A) 1,4,5 B) 6,7 C) 2,6 D) 3,4,7

55. Pilla ichiga tuxum qo'yuvchi organizmlarni aniqlang.

A) yomg'ir chuvalchangi, butli o'rgimchak
B) Suv shillig'i, qurbaqa

C) Planariya, chayon D) jigar qurti, exenakok

56. Trigeterozigota organizmlar (uchta dominant genni ham otasidan olgan) chatishtirildi. A va B genlari to'liq birikkan. Agar C genning krossingoveri 20 % ga teng bo'lsa, avlodning necha foizi ota-ona fenotipiga o'xshash bo'ladi? (krossingover har ikki organizmda ham uchraydi)

A) 24 % B) 68 % C) 21 % D) 82 %

57. Drozofila pashshasining tahliliy chatishtirilishi natijasida quyidagi natijalar olingan. Fenotip bo'yicha ota-onaga o'xshash bo'lgan individlar — 965 va 944 ta, fenotip bo'yicha farq qiladiganlari — 206 va 185 ta. Ajralish foizini va genlar orasidagi masofani aniqlang.

A) 17 % va 8,5 morganida B) 8,5 % va 8,5 morganida
C) 17 % va 17 morganida D) 8,5 % va 17 morganida

58. Tovuqlarda patlarini jingalak bo'lishi va oyog'ida patining bo'lmasligi dominant belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashib, bir biridan 7 morganida masofada joylashgan. Patlarini jingalak bo'lishi dominant gomozigota holatda letal xususiyatga ega hisoblanadi. Degeterozigota genotipiga ega xo'roz, silliq patli oyog'ida pati yo'q tovuq bilan chatishirilgan bo'lsa, olingan tovuq va xo'rozlarni necha foizini silliq patli va oyog'ida pati yo'q organizmlar tashkil qiladi?

A) 1,75 % B) 46,5 %
C) 26,75 % D) to'g'ri javob berilmagan

59. To'g'ri fikrni aniqlang.

A) erkin harakatlanuvchi tuban hayvonlarning yorug'lik yo'nalishiga to'g'ri harakati fotonastiya deyiladi

B) o'simliklarning yorug'lik yo'nalishiga bo'g'liq bo'lgan harakati fotonastiya deyiladi

C) retsessiv belgili organizm genotipini fenotip asosida aniqlash mumkin

D) barcha hayot shakllarida ATF sintezlanadi

60. DNK qo'sh zanjirida 510 ta vodorod bog' bo'lib sitoizin purin asosidan 2,333 marta kam bo'lsa, DNK uzunligini aniqlang.

A) 71,4 nm B) 142,8 nm C) 102 nm D) 204 nm

TUZUVCHILAR: Bozorova Zuxra, Qurbonov Ne'madulla.
Taklif va e'tirozlar uchun: +99897-222-04-50.

K i m y o

61. Oksidlarning kislotalik xossasi ortib borish qatorini toping.

1) fosfor (V) oksid; 2) mishyak (V) oksid; 3) azot (V) oksid; 4) surma (V) oksid

A) 2, 4, 1, 3 B) 3, 1, 2, 4
C) 4, 2, 1, 3 D) 2, 1, 3, 4

62. Teng massadagi kaliy va suv ta'sirlashuvidan 616 g eritma olingan bo'lsa, ajralgan vodorod massasini (g) hisoblang.

A) 8 B) 10 C) 12 D) 20

63. pH qiymati 1 ga teng bo'lgan 15 litr eritmaga necha litr suv qo'shilganda eritma pH qiymati 2 ga teng bo'ladi?

A) 15 B) 135 C) 85 D) 150

64. Ma'lum massadagi 30 % li eritmaga 100 g suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaga esa 40 % li eritma qo'shilganda 500 g 28 % li eritma hosil bo'lsa, dastlabki eritma massasini toping.

A) 150 B) 300 C) 250 D) 200

65. NaNO_3 va $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ dan iborat aralashma yuqori temperaturada qizdirilganda tarkibida 0,15 mol O_2 bo'lgan 23,2 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmaning massasini (g) toping.

A) 27,3 B) 35,8 C) 54,6 D) 46,1

66. Biror tuzning 80° C dagi eruvchanlik koeffitsiyenti uning 20° C dagi eruvchanlik koeffitsiyentidan 1,5 barobar ko'p. Agar shu tuzning 80° C da to'yingan 320 g eritmasi 20° C ga qadar sovutilganda 40 g tuz cho'kmaga tushishi ma'lum bo'lsa, shu tuzning 80° C dagi eruvchanlik koeffitsiyentini aniqlang.

A) 60 B) 40 C) 30 D) 45

67. Vagner reaksiyasi asosida 6,3 g alken oksidlanganda 0,1 mol cho'kma hosil bo'lsa, alkenni aniqlang.

A) C_2H_4 B) C_3H_6 C) C_4H_8 D) C_5H_{10}

68. $\text{CaS} + \text{KMnO}_4 + \text{KOH} = \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{CaSO}_4 + \text{H}_2\text{O}$
Ushbu reaksiya natijasidagi barcha koeffitsiyentlar yig'indisini toping.

A) 25 B) 27 C) 30 D) 26

69. C_2H_2 , C_2H_4 va C_2H_6 gazlaridan iborat 4,48 l (n.sh) aralashma 5 gramm keladi. Aralashma tarkibida necha mol vodorod atomi bor?

A) 0,75 B) 0,5 C) 0,8 D) 0,2

70. Nitrat kislota eritmasining molyalligi va molyarligi 2 ga teng bo'lsa, eritmaning zichligini (g/ml) aniqlang.

A) 1,126 B) 1,063 C) 1,315 D) 1,015

71. 63 g 20 % li nitrat kislotaga fosfor (V) oksid ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan kislotaning massasini (g) aniqlang.

A) 9,8 B) 8 C) 8,2 D) 16

72. Doimiy tok manbaiga ketma – ket ulangan $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$, CuSO_4 va NaCl eritmalari orqali 10000 sekund davomida 9,65 A tok o'tkazildi. Katodlarda hosil bo'lgan metallarning massalarini (g) mos ravishda aniqlang.
A) 201; 32; 23 B) 100,5; 32; 0
C) 100,5; 32; 23 D) 10,05; 32; 0
73. ^{14}N izotopi pozitron parchalanishidan qanday element atomi hosil bo'ladi?
A) ^{12}C B) ^{14}O C) ^{14}C D) ^{15}N
74. Xlorlansa ikki xil monoxlorli va uch xil dioxloralkan hosil qiluvchi eng yengil alkan, necha xil trixloralkan hosil qiladi?
A) 3 B) 6 C) 5 D) 4
75. Temperatura 273°K hajmi 16,8 l bo'lgan idishda 14 g N_2 , 15 g C_2H_6 va 4 g H_2 bor. Idishdagi bosimni (atm) toping.
A) 4 B) 6 C) 8 D) 10
76. Quyidagi oksidlanish – qaytarilish reaksiyasini tenglashtiring va chap tomondagi koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.
 $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{CrCl}_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{KCl} + \text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 + \text{HCl} + \text{H}_2\text{O}$
A) 17 B) 23 C) 19 D) 21
77. $\text{C}_x\text{H}_{3x-3}$ tarkibli alkanning tarmoqlangan izomerlar soni nechta?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
78. ^{40}Ca va $^{37}\text{Cl}^-$ zarrachalarga xos umumiy xususiyat(lar)ni toping.
1) energetik pog'onalar soni; 2) s elektronlar soni; 3) p elektronlar soni; 4) zaryadsiz nuklonlar soni.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3 C) 4 D) 3, 4
79. 33,6 g metilsiklopentanni yoqish uchun necha litr (n.sh) ozon – kislorod aralashmasidan kerak bo'ladi? (Ozonning hajmiy ulushi 40 %)
A) 67,2 B) 56 C) 89,6 D) 62,72
80. 200 ml 0,5 M li BaCl_2 eritmasiga 14,2 g Na_2SO_4 qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaga 100 ml 1 M li AgNO_3 eritmasi quyildi. Oxirgi eritmadagi tuzlarning massalarini (g) hisoblang.
A) 11,7 g NaCl ; 8,5 g NaNO_3
B) 5,85 g NaCl ; 8,5 g NaNO_3
C) 11,7 g NaCl ; 17 g NaNO_3
D) 5,85 g NaCl ; 17 g NaNO_3
81. Karbonat anhidrid va metandan iborat ikki xil aralashma ($M_{r1} = 24,4$; $M_{r2} = 35,6$) teng hajmda o'zaro aralastirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning H_2 ga nisbatan zichligini toping.
A) 15 B) 16,2 C) 14,6 D) 13
82. Ko'p kislotali kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzning gidrolizlanish jarayoni susaygan bo'lsa, demak eritmaga ...
1) alyuminiy sulfat qo'shilgan; 2) ishqor qo'shilgan; 3) suv qo'shilgan; 4) kristal soda qo'shilgan; 5) shu tuzning konsentrlangan eritmasi qo'shilgan.
A) 1, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 5 D) 3, 5

83. pH qiymati nechaga teng bo'lgan 800 ml HBr eritmasiga ($\alpha = 100\%$) 200 ml suv quyilsa, $[\text{H}^+]$ ionlari konsentratsiyasi $8 \cdot 10^{-3}$ mol/l bo'ladi?
A) 1,5 B) 3 C) 1 D) 2
84. Qaysi tuzning dissotsialanishidan olingan kationlar soni dissotsiyalangan tuzning atomlar sonidan 8 taga kam? ($\alpha = 100\%$; tuzning gidrolizlanishi va suvning dissotsialanishi hisobga olinmasin)
A) natriy fosfat B) kalsiy nitrat
C) alyuminiy sulfat D) bariy xlorid
85. X g 25 % li mis (II) sulfat eritmasidan 2,5 F tok o'tkazildi. Natijada katodda 22,4 l (n.sh) gaz ajraldi. X ni aniqlang.
A) 160 B) 200 C) 100 D) 250
86. Fe^{+3} ioni tarkibida nechta $m_l = -1$ bo'lgan elektron mavjud?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
87. 300 g 40 % li eritmadan x g to'kildi va x g 70 % li eritma qo'shildi, bunda 50 % li eritma hosil bo'ldi. Ushbu jarayonda necha (g) 70 % li eritma ishlatilgan?
A) 150 B) 200 C) 50 D) 100
88. 0,15 mol C_3H_x alkan radikalida $5,418 \cdot 10^{23}$ ta vodorod atomi bo'lsa, radikal valentligini toping?
A) II B) III C) I D) IV
89. 1,3 dimetil – siklopentanni necha xil moddadan hosil qilish mumkin? (Gustavson usuli bo'yicha)
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
90. Quyidagi reaksiya ketma – ketligidan C moddani aniqlang.
2 – brom – 3 – metilbutan A B C
A) 2,3,4,5 – tetrametilgeksan
B) 2,2,3,3 – tetrametilbutan
C) 3,3,4,4 – tetrametilgeksan
D) 3,3,5,5 – tetrametilgeptan

TUZUVCHI: Xatamov Olmos.
Taklif va e'tirozlar uchun: +99890 187 16 08